



QORAMOLLARDA AKTINOMIKOZ KASALLIGINI TARQALISHI, SABABLARI VA DAVOLASH USULLARI

*Mustaqil tadqiqotchi- **Sadullayev.B.**, Ilmiy rahbar v.f.f.d -**Haydarova S.A.***

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti*

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Respublikamizning Samarqand va Xorazm viloyatlarida qoramollar orasida uchraydigan aktinomikoz kasalligining tarqalish darajasini o'rganish, uni turli jarrohlik usullari bilan davolash samaradorligini aniqlash hamda operatsiyadan keyingi bitish jarayonlarini tezlashtirish va asoratlarning oldini olish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Аннотации: Данное исследование направлено на изучение степени распространения актиномикоза среди крупного рогатого скота в Самаркандской и Хорезмской областях Республики, определение эффективности различных хирургических методов лечения, а также разработку практических рекомендаций по ускорению процессов заживления в послеоперационный период и профилактике осложнений.

Annotation: This study is aimed at investigating the prevalence of actinomycosis among cattle in the Samarkand and Khorezm regions of the Republic, determining the effectiveness of various surgical treatment methods, and developing practical recommendations to accelerate postoperative healing processes and prevent complications.

Kalit so'zlar: aktinamikoz, zamburug'lar, yirinli yallig'lanish, limfatik tugunlar, patologiya, profilaktika, xirurgik infeksiya, mumiyο, antiseptik, narkoz, operatsiya.

Ключевые слова: актиномикоз, грибы, гнойное воспаление, лимфатические узлы, патология, профилактика, хирургическая инфекция, мумиё, антисептик, наркоз, операция.



Keywords: *actinomycosis, fungi, purulent inflammation, lymph nodes, pathology, prevention, surgical infection, mumiyo, antiseptic, anesthesia, surgery.*

Kirish. So‘nggi yillarda veterinariya amaliyotida yiringli-yallig‘lanish kasalliklari, xususan, aktinomikoz qoramollar orasida keng tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik asosan *Actinomyces bovis* mikroorganizmi ta’sirida kelib chiqib, bosh sohasidagi yumshoq to‘qimalar, past jag‘ suyaklari va limfa tugunlarida granulyomatoz yallig‘lanishlar bilan kechadi. Kasallikning kechishi hayvonning mahsuldorligiga, oziqlanishiga hamda umumiy sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli aktinomikozni erta aniqlash, to‘g‘ri tashxislash va samarali davolash veterinariya amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Hayvonlardagi mavjud patologiyalar orasida ichki yuqumsiz kasalliklaridan keyin yetakchi o‘rinlardan birini jarrohlik kasalliklar egallaydi [7].

Viloyat xo‘jaliklaridagi hayvonlarni tekshirish natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, ayniqsa lalmi, va tog‘oldi tumanlarida madaniylashtirilgan va xoriydan keltirilgan hayvonlar asosiy ozuqa sifatida dag‘al xashak bilan oziqlantirilganda ular aktinomikoz kasallikka ko‘proq chalinishi aniqlanadi. Kasallikning tarqalishiga asosan 1-3 yillik, aktinomikoz chaqiruvchilari bilan zararlangan dag‘al xashak, somon va boshqa ozuqalar sabab bo‘ladi. Kasal hayvonlar esa o‘z tomonidan kasallikni jamg‘argan ozuqa, suv, yaylovlarga tarqatadi va u tarqalishi uchun manba hisoblanadi. Kasallik yil davomida kuzatiladi. Lekin kuz, qish va bahorda ko‘proq uchraydi. Kasallik hayvonlar immuniteti past bo‘lganda rivojlanadi [1].

Aktinomikoz kasalligining chaqiruvchilari og‘iz, tanglay, milklarda joylashgan katta va kichik jarohatlar orqali organizmga kirib lab, jag‘ va limfa tomirlariga quyuluvchi jag‘ osti limfa tuguniga o‘tadi. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi rivojlanishi uchun qulay sharoit topib, asta-sekinlik bilan rivojlanadi, druzalar va miseliylar hosil qila boshlaydi. Qo‘zg‘atuvchi organizmning himoya faoliyatini susaytiradi, bu esa yallig‘lanish jarayonlarini surunkali kechishiga olib keladi. Natijada uzoq muddat davomida turli kattalik va shaklda aktinomikoz granulyomalari hosil bo‘lishiga olib keladi. Patologik jarayonning chuqurlashib



borishi va kasallikning mineralizasiyalashuvi natijasida aktinomitsetlar suyak to'qimalarini ham shikastlab, nekrozga uchratadi [7.8].

Tadqiqot maqsadi. Respublikaning Samarqand va Xorazm viloyatlarida qoramollar orasida aktinomikoz kasalligining tarqalish darajasini o'rganish hamda uni turli jarrohlik yo'llari bilan davolash va operatsiyadan keyingi davrda bitish jarayonlarini tezlashtirish hamda asoratlarning oldini olish bo'yicha amaliyotga tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Jarrohlik kasalliklar, jumladan aktinomikozning etiologiyasi hamda uning hayvonlar orasida tarqalishi. Olimlar bu kasallikka xos o'zgarishlarni bundan bir necha million yillar avval yashagan karkidonning jag' suyaklaridan topganlar. Mustaqil kasallik sifatida aktinomikoz 100 yil avval ajratilgan va veterinariya adabiyotlarida yozilgan. 1878 yilda italiyalik olim Rivolta uni o'rganib, unga diskomitset degan nom qo'ygan [5.6].

Tadqiqot davomida o'rganilgan Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi qoramol podalarida aktinomikoz kasalligining tarqalish darajasi o'rtacha 10,4 % ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich hududdagi hayvonlarni saqlash, oziqlantirish va og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga yetarli e'tibor berilmasligi bilan bog'liq deb baholandi. Xususan, chorva mollarining yem-xashagi orasida tikanli o'simliklar va dag'al o'tlarning mavjudligi, shuningdek, og'iz va milk to'qimalarining mikrotravmalari infeksiya kirib borishida asosiy sababchi omil sifatida qayd etildi.

Qoramollar aktinomikozining etiologiyasi va patogenez

Bosh sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlar hayvonlarni mudatdan oldin xisobdan chiqarishga majbur etadi va ayrim hollarda ularning o'limiga ham olib kelishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki bosh sohasidagi yiringli-nekrotik jarayonlar hayvonlar orasida keng tarqalgan va ular organizimga salbiy ta'sir qilib uning xizmat jarayonining pasayishiga olib keladi [2].

Yallig'lanish hujayra va mikroblarning o'lishi, o'lgan to'qimalarning parchalanishi, yiringli ekssudat hosil bo'lishiga olib keladi. Yiring bakteriologik usul bilan tekshirilganda undan stafilokokklar, streptokokklar, ichak va ko'k yiring tayoqchalari va boshqalar aniklandi [4].



Klinik kuzatishlarda aktinomikoz bilan kasallangan qoramollarda asosan bosh, pastki jagʻ, burun va milk sohalarida qattiq shish, yiringli oqindi, teshikchalar (fistulalar) hamda granulyomatoz yalligʻlanish belgilari aniqlandi. Kasallikning surunkali kechishida esa hayvonlarning umumiy holati sustlashgani, ishtahaning pasaygani va sut mahsuldorligining kamaygani kuzatildi.

Xoʻjaliklaridagi hayvonlarni tekshirish natijalaridan maʼlum boʻldiki, hayvonlar asosiy ozuqa sifatida dagʻal xashak bilan oziqlantirilganda ular bu kasallikka koʻproq chalinadi. Kasallikning tarqalishiga asosan 1-3 yillik kasallik chaqiruvchilari bilan zararlangan dagʻal xashak, somon va boshqa ozuqalar sabab boʻladi. Kasal hayvonlar esa oʻz tomonidan kasallikni ozuqa, suv, yaylovlarga tarqatadi va u tarqalishi uchun manba hisoblanadi. Kasallik yil davomida kuzatiladi. Lekin kuz, qish va bahorda koʻproq uchraydi. Kasallik hayvonlar immuniteti past boʻlganda rivojlanadi. Jarohat ichida qoʻzgʻatuvchi koʻpayadi va atrof toʻqimalarga tarqalib, toksin va antigenlarni ajratadi. Buning natijasida oʻziga hos kapsula rivojlanib, ichida yiring toʻplanadi.

Laborator tahlillarda yiring namunalarida *Actinomyces bovis* koloniyalarining mavjudligi mikroskopik usulda tasdiqlandi. Shu bilan birga, gematologik koʻrsatkichlarda leykotsitoz, limfotsitlar sonining biroz kamayishi va ECHT (eritrotsitlar choʻkish tezligi) oshishi aniqlanib, bu organizmda yalligʻlanish jarayonining faol kechayotganini koʻrsatdi.

Aktinomikozni davolash. Davolashda qoʻllangan ikki xil jarrohlik yondashuvlari taqqoslandi, takomillashtirilgan usulda (mumiyo asosidagi biostimulyator bilan kompleks yondashuv) anʼanaviy usulga nisbatan sezilarli afzalliklar qayd etildi. Mumiyo oʻz tarkibidagi organik kislotalar, aminokislotalar hamda mikroelementlar tufayli toʻqimalarda angiogenez, granulyatsiya va epitelizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi. Natijada yara bitish muddati oʻrtacha 2–3 kunga qisqardi.

Bundan tashqari, mumiyo bilan davolangan hayvonlarda yalligʻlanish sohasidagi shishning tez soʻrilishi, ogʻriq sindromining kamayishi, hamda toʻqimalarda qayta infektsiya kuzatilmasligi qayd etildi. Antibiotik bilan birgalikda



qo'llanganda esa sinergik ta'sir kuzatilib, bakterial floraga qarshi samaradorlik oshgan.

An'anaviy usul bilan davolangan guruhda esa ayrim hayvonlarda yiringli jarayonning qaytalanishi (15,4 %) va bitish jarayonining sust kechishi kuzatildi. Bu holat, ehtimol, yara o'chog'ida mikroorganizmlarning to'liq bartaraf etilmasligi yoki mahalliy qon aylanishning yetarli darajada tiklanmaganligi bilan bog'liq.

Ushbu natijalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar bilan hamohangdir. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, biostimulyatorlar (mumiyo, propolis, aloe ekstrakti) jarrohlik amaliyotida qo'llanganda to'qima regeneratsiyasini tezlashtirib, yiringli-yallig'lanish asoratlarini kamaytiradi.

Shuningdek, mumiyo qo'llanilganda hayvonlarning gematologik ko'rsatkichlari normallashtirildi, eritrotsitlar va gemoglobin miqdorining oshgani, bu esa reparativ jarayonlar va immun faollikning tiklanishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aktinomikoz kasalligini davolashda mumiyo asosidagi kompleks jarrohlik yondashuvi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlik beradi, bitish jarayonini tezlashtiradi, asoratlar ehtimolini kamaytiradi va hayvonlarning sog'ayish davrini qisqartiradi.

Xulosa: 1. Aktinomikoz qoramollar orasida asosan bosh va pastki jag' sohasida uchraydi, kasallikning o'rtacha tarqalish darajasi 10,4 % ni tashkil etdi.

2. Takomillashtirilgan jarrohlik usuli (mumiyo asosidagi biostimulyator bilan davolash) regeneratsiya jarayonini tezlashtirib, operatsiyadan keyingi asoratlar sonini kamaytiradi.

3. Mumiyo preparatini jarrohlik amaliyotida qo'llash yiringli-yallig'lanish kasalliklarida to'qimalarning tiklanishini rag'batlantiruvchi samarali vosita ekanligini ko'rsatdi.

4. Olingan natijalar asosida veterinariya amaliyotida aktinomikozni davolash va oldini olish bo'yicha mumiyo qo'llashga asoslangan kompleks tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Волотко И.И., Бочарова А.Г. Обсеменность грибов лучистыми грибами // Ветеринария.-1980.-№ 8 -с 28-29.
2. Волотко И.И., Смирнова А.В., Зуев О.И. Актиномикоз крупного рогатого скота // Ветеринария.-1992..-№2 –с. 32-34.
3. Жажгалиев Р.Г. Микробный фон воздушной среды животноводческих помещений / Р.Г. Жажгалиев, А.Н. Лебедев, В.С. Авдеенко // Материалы Международной научно–практической конференции «Ветеринарная медицина. Современные проблемы и перспективы развития». – Саратов. – 2010. – С. 27 – 28 (0,15/0,05 п.л.).
4. Ильченко В.И. Эффективность препарата бетадин при лечении животных с актиномикозом / В.И.Ильченко, И.И.Михайлова, [Т.Р.Лещенко](#), [В.П.Бывайлов](#) // Материалы Международной н/п конференции 7-10 февраля 2012г. «Проблемы и тенденции инновационного развития агропромышленного комплекса и аграрного образования России», п. Персиановский, 2012 -С.153-157
5. Кириличева Т.Б. Адаптационно - биоритмологические основы вариабельности иммуно-модулирующего эффекта. Автореф. диссер. на соиск. уч. степ. док. мед. наук, Москва, 2000, С. 11-46.
6. Никитеев П.А., Илченко В.И., Войтенко Л.Г., Илченко В.Д. Антибиотические препараты при консервативном способе лечения крупного рогатого скота с актиномикозом Актуальные проблемы и методические подходы к лечению и профилактике болезней животных : Материалы международной научно-практической конференции, 5 февраля 2015г. - пос. Персиановский : Донской ГАУ, 2015 г. - С. 50-53.
7. Санин Л. Фитотерапия в ветеринарии. © «Ветсправочник». 2008 –с
8. Смирнов А.Б. О Лечение заболеваний, вызванных стафилококковой и стрептококковой инфекцией //. -Москва. -2010 с 22-25